



SEREBRAL FALAJLIGI MAVJUD BOLALARNING HARAKAT VA PSIXIK RIVOJLANISHIDAGI BUZILISHLARNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdulhafizova Dilshoda Akmaljon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Maxsus pedagogika va inkluziv ta’lim” fakulteti “Logopediya” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola serebral falajligi mavjud bolalarning harakat va psixik rivojlanishidagi buzilishlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish sabablari hamda korreksiyalash usullari haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Bolalar serebral falaji, markaziy nerv sistemasi, harakat, refleks, spastik diplegiya, gemiplegiya, giperkinez, tremor, ruhiy buzilishlar, falajlik, sezgi analizatorlari.

Annotation: This article provides information on the movement and psychological development disorders in children with cerebral palsy, their specific characteristics, causes of origin, and methods of correction.

Keywords: Children with cerebral palsy, central nervous system, movement, reflex, spastic diplegia, hemiplegia, hyperkinesis, tremor, mental disorders, sensory analyzers.

Аннотация: В этой статье представлена информация о нарушениях двигательного и психического развития у детей с церебральным параличом, их специфических особенностях, причинах возникновения и методах коррекции.

Ключевые слова: Дети с церебральным параличом, центральная нервная система, движение, рефлексы, спастическая диплегия, гемиплегия, гиперкинез, трепор, психические расстройства, паралич, сенсорные анализаторы.

KIRISH. Bolalar serebral falaji (BSF) – markaziy nerv tizimining og’ir kasalligi bo‘lib, erta ontogenet davrida bosh miyaning zararlanishi yoki to‘liq rivojlanmasligi sababli kelib chiqadi. Bunda miyaning nisbatan “yosh” bo‘limlari – ixtiyoriy harakatlar va nutqni boshqaruvchi katta yarimsharlar hamda boshqa po‘stloq funksiyalari nisbatan ko‘proq zararlanadi. Harakat buzilishlari bolalar serebral falajining klinik ko‘rinishidagi yetakchi simptom hisoblanadi, ular ko‘pincha, ruhiy va nutqiy buzilishlar, boshqa analizator (ko‘rish, eshitish, chuqur sezish) tizimlaridagi buzilishlar hamda talvasa xurujlari bilan birga kuzatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Serebral falajligi bo‘lgan bolalardagi barcha harakat turlari shakllanishida ma’lum buzilishlar qayd etiladi: bunda boshni tutib turish, o‘tirish, turish, yurish va manipulyativ faoliyat kabi harakat turlari qiyinchilik bilan rivojlanadi. BSF dagi harakat rivojlanishining tempi turli darajalarda kechishi mumkin. Ularda harakat

sohasini buzilishi turli darajada namoyon bo‘ladi harakatning buzilishi shunday og‘ir bo‘lishi mumkinki, u bolaning erkin harakat qilishidan butunlay mahrum qiladi, muskullarning tonusi deyarli zarar ko‘rmagan taqdirda ham bolalar o‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar. Bu nuqsonga ega bolalarda faqat harakat qilishdagi qiyinchiliklar muammo tug‘dirmaydi, balki ularda to‘g‘ri harakat qilishi haqidagi tasavvurlarni yo‘qligi hamda shakllanmaganligi namoyon bo‘ladi. Bolalardagi harakat buzilishlari o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish malakalarini egallanishini murakkabligi, ularni atrofdagi kattalarga qaram qilib qo‘yadi.

Bu ularda passivlikni, tashabbus ko‘rsatmaslikni shakllantirib, motivatsion va irodaviy sohani buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, harakat buzilishlari bolaning psixik rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday bolalarning ko‘pchiligidagi aqliy mehnat qilishi buzilgan bo‘lib ular tez charchab qoladilar. Biror-bir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bajarilayotganda ular bo‘shashadilar yoki tez jahllari chiqadi va berilgan topshiriqlarni qiyinchilik bilan bajaradilar. Ba’zi bolalarda charchash oqibatida harakatida bezovtalik paydo bo‘ladi. Bola o‘zicha har xil harakatlar qiladi, turli imo-ishoralarni ko‘rsatadilar, so‘lagi oqadi. Bolalarning ixtiyoriy faoliyatida tartiblilikka erishish katta qiyinchilik tug‘diradi. Bolalar serebral falajida matorikani buzilishini o‘ziga xos tomonlari bu ixtiyoriy harakatlarni shakllanmaganligi emas, balki sodda tug‘ma harakat avtomatizmlarini saqlanib qolganligidir. Normal rivojlanishda bu reflekslar bolaning ikki oyligida paydo bo‘ladi. [1.461]

TAHLIL VA NATIJALAR. Serebral falajligi bo‘lgan bolalardagi harakat buzilishlarining turli tarzda ifodalanishi kasallikning o‘ziga xos xususiyatlariga aloqador bo‘lgan bir qator omillar bilan bog‘liq. Y.M.Mastyukova spastika, gipotoniya, distoniya shaklidagi mushak tonusi buzilishlari, ixtiyoriy harakatlarning cheklanganligi yoki ularni butkul amalga oshira olmaslik, ixtiyorsiz majburiy harakatlarning (giperkinezlar va tremor) qayd etilishi, harakatlarning muvozanati va koordinatsiyasidagi buzilishlar (ataksiya); sinkineziyalar; harakatlar sezgilarining buzilishi (kinesteziya), patologik tonik reflekslarning mavjudligi kabi holatlar ushbu omillarning eng asosiylari ekanligini ta’kidlaydi.[2.192] Maxsus tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, serebral falajlikning barcha shakllarida harakatlarni proprioretseptiv jihatdan boshqarish bilan bog‘liq ma’lum buzilishlar qayd etiladi. Ushbu buzilishlar tananing fazodagi holatini aniqlashga yordam beradigan shartli-reflektor aloqalarning shakllanishini keskin qiyinlashtiradi.

BSF dagi tonik reflekslar odatda, patologik mushaklar tonusi va boshqa harakat buzilishlari natijasida faollashadi hamda ular bilan birga keladi. Ularning ifodalanganlik darjasini ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirish malaka va ko‘nikmalarining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydigan tana holatini tik tutish va muvozanat reaksiyalarining rivojlanishiga to‘sinqilik qilishi mumkin. Pozotonik reflekslarning BSF li bolalardagi nutq va harakat buzilishlarining strukturasiga ko‘rsatadigan ta’siri masalasi bir qator maxsus tibbiy adabiyotlarda ko‘rib chiqilgan (L.O.Badalyan, L.T.Jurba, N.M.Vsevolojskaya, K.A.Semenova, N.M.Maxmudova, L.T.Jurba, Ye.M.Mastyukova). Tonik reflekslarning ifodalanganligi va

mushaklar tonusining kuchayishi patologik propriotseptiv afferentatsiyani yuzaga keltiradi. Patologik holatlar va tana pozalaridan kelayotgan afferent impulslar to‘g‘ri bolaning miyasiga kelib tushadi. Bu holat nutq va barcha ixtiyoriy harakatlarning rivojlanishini kechiktiradi hamda ulardagi rivojlanish jarayonining buzilishiga sabab bo‘ladi. Tonik reflekslar artikulyatsion apparat mushaklarining tonusiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Serebral falajligi bo‘lgan bolalarda qayd etiladigan harakat buzilishlari nafaqat statik va lokomotor funksiyalarning shakllanishini qiyinlashtiradi, balki, ruhiy va nutqiy funksiyalarining shakllanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. [3.255.262]

Serebral falajligi bo‘lgan bolalarning qo‘l funksiyasi bilan bog‘liq buzilishlar ulardagi harakat buzilishlarining tarkibi alohida o‘rin tutadi. Ular kaft va barmoqlarning tutib olish funksiyasi, manipulyativ faoliyat va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarining shakllanishini qiyinlashtiradi. BSF ning turli shakllarida qo‘l funksiyasining zararlanish darajasi turlicha ifodalanishi mumkin.

Serebral falajligi bo‘lgan bolalarning harakat patologiyalarini o‘rganishga qaratilgan adabiyotlarda falajlik turlarini topik va klinik tamoyillar asosida tasniflashga alohida ahamiyat berilgan. Bolalar serebral falajini tasniflashda hozirgi kunda shifokorlar, logopedlar, pedagog-defektologlar va psixologlar amaliyotida keng qo‘llanib kelinayotgan K.A.Semenova tasnifidan foydalaniadi. Ayni tasnif kasallik patogenezi haqidagi zamонави tasavvurlarga muvofiq tarzda bolalar serebral falajida miya zararlanishining barcha klinik belgilarni, ya’ni, harakat, psixika va nutq sohasida yuzaga keladigan simptomlarni hisobga oladi hamda kasallikning qanday kechishini prognoz qilish imkonini beradi. Ushbu tasnifga muvofiq holda bolalar serebral falajligining quyidagi beshta turi farqlanadi: spastik diplegiya, ikki tomonlama gemiplegiya, gemiparetik shakl, giperkinetik shakl, atonik-astatik shakl.

Bolalarning aksariyat qismida ruhiy buzilishlar aniqlanadi. Ko‘pincha ular ruhiy rivojlanishning kechikishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, ammo ushbu holatni bilish faoliyati buzilishlarini korreksiyalashga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar orqali mактабгача va kichik mакtab yoshida kompensatsiyalash imkoni mavjud. Spastik diplegiyali bolalarning 30-35% ida asosan yengil darajadagi debillik bilan ifodalanuvchi oligofreniya holati qayd etiladi.

Serebral falajligi bo‘lgan bolalarning ruhiy rivojlanishida o‘ziga xos buzilishlar qayd etiladi. Ruhiy rivojlanishning buzilish mexanizmi murakkab hisoblanadi va u bosh miyadagi zararlanish o‘chog‘ining yuzaga kelgan vaqtiga, og‘irlik darajasi hamda lokalizatsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ye.M.Mastyukova, I.Yu.Levchenko, Ye.I.Kirichenko BSF li bolalarning ruhiy rivojlanishi o‘ziga xos tarzda kechishini hamda ushbu holat bosh miyadagi erta organik zararlanishlar tufayli harakat, sensor (eshitish, ko‘rish va kinestetik idrok patologiyalari) va nutqiy buzilishlar bilan birga kuzatilishini ta’kidlashadi. Ruhiy buzilishlarning yuzaga kelishida faoliyat jarayoni hamda ijtimoiy munosabatlarning cheklanganligi, tarbiya va atrof-muhit omili muhim o‘rin tutadi.

Serebral falajligi bo‘lgan bolalarning psixik faoliyatidagi xronologik jihatdan rivojlanish jarayoni keskin kechika boshlaydi. Buning natijasida turli shakldagi ruhiy buzilishlar va birinchi navbatda, bilish faoliyatidagi kamchiliklar aniqlanadi. Ko‘pgina olimlar serebral falajlikka ega bo‘lgan bolalarning psixik funksiyasidagi buzilishlar disgarmonik hamda nomutanosib xususiyatga ega ekanligini qayd etishadi. Ushbu xususiyat BSF da miya rivojlanishining erta bosqichlaridagi zararlanish “mozaik” xarakterga ega bo‘lishi bilan bog‘liq; bunda asosan ontogenezning kechki bosqichlarida rivojlanuvchi “yosh” oliy funksiyalar zararlanadi. Ba’zi intellektual funksiyalarning yo‘qolishi, ba’zilarining rivojlanishdan kechikishi va boshqa funksiyalarning esa saqlanib qolishi mumkin.

Serebral falajlik qayd etilayotgan bolalarda astenik belgilarning (tez charchash, psixik jarayonlarning toliquvchanligi) yaqqol ifodalanishini ta’kidlanadi, bu holat ham o‘z navbatida markaziy nerv tizimining organik zararlanishiga bog‘liq hisoblanadi. Aksariyat mualliflar diqqatni jamlay olmaslik, eslab qolish bilan bog‘liq qiyinchiliklar hamda bir aqliy faoliyat turidan ikkinchi aqliy faoliyatga o‘tishning sekinlashganligi kabi holatlar kuzatilishini qayd etadi. Ye.I.Kirichenko serebral falajlikka ega bo‘lgan bolalarning ish tempi sog‘lom bolalarnikiga nisbatan sezilarli darajada sekin kechishini ta’kidlab o‘tishgan.

Ko‘pgina tadqiqotchilar atrof-muhit haqidagi bilim va tasavvurlarning yetishmasligiga e’tibor berishadi. Bu holat quyidagi sabablar natijasida yuzaga keladi:

- Harakatning uzoq muddat davomida cheklanganligi yoki harakatlanish bilan bog‘liq qiyinchiliklar sababli bola va boshqa shaxslar o‘rtasidagi muloqot jarayonining cheklanganligi, majburiy izolyatsiya.
- Harakat hamda sensor sohadagi buzilishlar sababli predmetli-amaliy faoliyat davomida atrof-muhitni o‘rganishning qiyinlashganligi.

K.A.Semenova, Ye.M.Mastyukova hamda M.Ya.Smuglinalarning ishlarida BSF dagi harakat va sensor funksiyalar rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro chambarchas aloqa yorqin aks ettirilgan. “Yaqqol ifodalangan harakat patologiyalarining sensor yetishmovchiliklar bilan birga kuzatilishi, serebral falajlikdan aziyat chekuvchi bolalardagi bilish faoliyatining to‘liq rivojlanmasligi holatini yuzaga keltiruvchi sabablardan biri bo‘lishi mumkin”.

XULOSA. BSFdha logopedik ishning maqsadi artikulatsion holat va harakat sezgilarini rivojlantirishdan iboratdir. Artikulatsion harakat sezgilarini yaxshilash uchun olib boriladigan mashqlar oyna yordamida harakatlami ochiq ko‘z bilan ko‘zatish va harakatlarini yopiq ko‘z bilan diqqatli bo‘lib sezish kabi mashqlar navbatma navbat qo‘llaniladi. BSFdha nutq va umumiylar motorikaning buzilganligi o‘rtasidagi bog‘liqlik artikulatsion m otorikadagi m urakkab buzilishlar qo‘l harakati funksiyalarining buzilishiga olib kelishida ham namoyon bo‘ladi.[4]

Nutq va qo‘l harakatlarining bog‘liqligi 1928-yilda V.M.Bexterev tomonidan aniqlangan bo‘lib, u qo‘l harakatlarining rivojlanishi nutqning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatib o‘tgan. M.M.Kolsova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola barmoqlarining harakati markaziy asab tiziminitig shakllanishiga ta’sir ko‘rsatib, bola nutqining

jadal rivojlanishiga yordam berar ekan. Ushbu ma’lumotlar logopedik ishlar bilan bolaning qo‘l va umumiylar motorikasini rivojlantirish ishlarini birgalikda olib borish zarurligini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. O‘zbekiston faysuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2011.
2. Мастьюкова Е.М., Ипполитова М.В. Нарушение речи у детей с церебральным параличом: Книга для логопеда. -М.: Просвещение, 2000. 192 с.
3. Sh.D.Shokirova. Erta uranoplastikadan so‘ng rinolaliyalı bolalarda nutqiy buzilishlarning profilaktikasi. Toshkent Davlat Pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnalni. – Toshkent. 2022. – № 6. 255-262 betlar
4. L. Mo‘minova “Maxsus psixologiya” Toshkent - 2013.
5. <https://lex.uz>
6. <https://www.unicef.org>